

PEDAGOGIK ERUDITSIYA - PEDAGOGLARDA KASBIY STRESSNI OLDINI OLISH ORQALI YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH OMILI SIFATIDA

Vaxobova Durдона To‘lanboy qizi 2-bosqich magistranti

Andijon davlat pedagogika inistituti

O‘zbekiston, Andijon sh., Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy

e-mail: tursunaliyevadurdonaxon.2526@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410506>

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik eruditsiyaning pedagoglarda kasbiy stress profilaktikasidagi roli nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Pedagogik eruditsiya pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish, pedagogik vaziyatlarni samarali tahlil qilish va boshqarish, reflektiv faoliyatni rivojlantirish hamda kommunikativ madaniyatni shakllantirish orqali kasbiy stressni kamaytirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, pedagogik eruditsiya pedagoglarda konstruktiv coping strategiyalarini shakllantirib, ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni yaratishga yordam berishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik eruditsiya, kasbiy stress, stress profilaktikasi, pedagogik kompetentlik, refleksiya, kommunikativ madaniyat, pedagogik faoliyat, coping strategiyalari, pedagogik muhit.

Abstract. This article theoretically analyzes the role of pedagogical erudition in the prevention of professional stress in teachers. It is substantiated that pedagogical erudition serves to reduce professional stress by increasing the teacher's professional competence, effectively analyzing and managing pedagogical situations, developing reflexive activity, and forming a communicative culture. It is also highlighted that pedagogical erudition helps to form constructive coping strategies in teachers and create a positive psychological environment in the educational process.

Keywords: pedagogical erudition, professional stress, stress prevention, pedagogical competence, reflection, communicative culture, pedagogical activity, coping strategies, pedagogical environment.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется роль педагогической эрудиции в профилактике профессионального стресса у педагогов. Обосновано, что педагогическая эрудиция служит снижению профессионального стресса за счет повышения профессиональной компетентности педагога, эффективного анализа и управления педагогическими ситуациями, развития рефлексивной деятельности и формирования коммуникативной культуры. Также освещается, что педагогическая эрудиция способствует формированию у педагогов конструктивных coping-стратегий и созданию позитивной психологической среды в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогическая эрудиция, профессиональный стресс, профилактика стресса, педагогическая компетентность, рефлексия, коммуникативная культура, педагогическая деятельность, стратегии coping, педагогическая среда.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsining kasbiy salohiyati, psixologik barqarorligi va ijodiy faolligi ta’lim sifati hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonining murakkablashuvi, o‘quv yuklamasining ortishi, ijtimoiy talablarning yuqoriligi pedagog faoliyatida kasbiy stress xavfini kuchaytirmoqda. Mazkur holat nafaqat pedagogning psixologik farovonligiga, balki ta’lim natijalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan pedagoglarda kasbiy stressni oldini olishning samarali resurslarini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Bunday resurslardan biri sifatida pedagogik

eruditsiya - pedagogning keng bilim doirasi, refleksiv tafakkuri va kasbiy moslashuvchanligini ta’minlovchi integrativ sifat - alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi pedagogik eruditsiyaning pedagoglarda kasbiy stress profilaktikasidagi rolini nazariy jihatdan asoslash hamda uning yuqori malakali kadrlar tayyorlashdagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

Mazkur maqolada muammo nazariy tahlil, ilmiy manbalarni qiyosiy o’rganish va tizimlashtirish asosida yoritildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik kompetensiyalar va stress nazariyalari tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlar taxlilida kasbiy stress shaxsning kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan psixofiziologik zo’riqish holati sifatida talqin qilinadi. G. Selye stressni organizmning tashqi va ichki ta’sirlarga moslashuv reaksiyasi sifatida izohlaydi. L.S. Vigotskiy stressni shaxs rivojida ijtimoiy muhit va emotsional holat bilan uzviy bog’liq holda ko’rib chiqadi. A.A. Bodalev pedagog faoliyatida muloqot jarayonidagi qiyinchiliklar stressning asosiy manbalaridan biri ekanini ta’kidlaydi. V.V. Nikiforov esa kasbiy stressni shaxsning emotsional barqarorligi va o’zini boshqarish qobiliyati bilan bog’laydi. “Kasbiy stress pedagogning professional faoliyati jarayonida yuzaga keladigan psixik zo’riqish holati bo’lib, u tashqi va ichki omillar ta’siri ostida shakllanishi”ni[1]. Markovka o’z nazariyasida ta’kidlab o’tgan. Hamda ushbu omillarni “tashqi va ichki omillarga ajratgan. Tashqi omillarga ish yuklamasi, vaqt tanqisligi, ta’lim jarayonidagi nizolar kirsas, ichki omillar pedagogning individual-psixologik xususiyatlari va motivatsiyasi bilan bog’liq”[2]. Pedagogik eruditsiya pedagogning kasbiy faoliyatida zarur bo’lgan fanlararo bilimlar tizimi, pedagogik tafakkur, metodik savodxonlik va psixologik kompetensiyalar integratsiyasini ifodalaydi[3]. U pedagogning ta’lim jarayonini chuqur anglash, murakkab vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilish hamda innovatsion yondashuvlarni qo’llash imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda pedagogik eruditsiya kasbiy kompetentlik modeli doirasida talqin qilinib, o’qituvchining refleksiv, analitik va kreativ fikrlash ko’nikmalari bilan uzviy bog’liq holda ko’rib chiqilmoqda [4]. Ilmiy manbalarda o’qituvchi shaxsining keng bilim doirasiga egaligi ta’lim samaradorligining asosiy shartlaridan biri sifatida baholanadi. Jumladan, Konstantin Ushinskiy o’qituvchining har tomonlama bilimli va yuksak madaniyatli bo’lishi zarurligini ta’kidlagan[5]. Anton Makarenko pedagog shaxsining intellektual salohiyati tarbiyaviy ta’sir kuchini belgilashini qayd etgan [6]. Vasiliy Suxomlinskiy esa o’qituvchining ma’naviy-axloqiy va intellektual boyligi pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlashini asoslab bergan [7].

Pedagogik eruditsiya pedagogning kasbiy faoliyatida zarur bo’lgan keng qamrovli pedagogik, psixologik va metodik bilimlar tizimini ifodalaydi. Pedagogik eruditsiyaga ega bo’lgan o’qituvchi ta’lim jarayonida yuzaga keladigan murakkab pedagogik vaziyatlarni ilmiy asosda tahlil qila oladi hamda ularni samarali hal etish yo’llarini topadi. Shu jihatdan pedagogik eruditsiya pedagoglarda kasbiy stressning oldini olishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Birinchidan, pedagogik eruditsiya pedagogning kasbiy kompetentligini oshiradi. Pedagog o’z fanini, ta’lim metodlarini hamda o’quvchilarning psixologik xususiyatlarini chuqur bilgan holda dars jarayonini samarali tashkil etadi. Bu esa pedagogning faoliyatida noaniqlik, ishonchsizlik yoki pedagogik qiyinchiliklar tufayli yuzaga keladigan stress holatlarining kamayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, pedagogik eruditsiya pedagogik vaziyatlarni to’g’ri tahlil qilish va boshqarish imkoniyatini beradi. Ta’lim jarayonida o’quvchilar bilan muloqot, intizom muammolari, o’quv motivatsiyasining pasayishi kabi turli pedagogik vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Eruditsiyaga ega pedagog bu vaziyatlarni psixologik-pedagogik bilimlarga tayanib hal etadi. Natijada konfliktli vaziyatlar kamayadi va pedagogning psixologik zo’riqishi pasayadi.

Uchinchidan, pedagogik eruditsiya pedagogning refleksiv faoliyatini rivojlantiradi. Refleksiya pedagogning o’z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Bu jarayon pedagogning kasbiy o’zini rivojlantirishiga xizmat qiladi hamda kasbiy stressning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, pedagogik eruditsiya kommunikativ madaniyatni rivojlantiradi. Pedagogning o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olishi ta’lim jarayonida ijobiy psixologik shakllantiradi.	T/n	Pedagogik eruditsiyaning asosiy komponentlari	muhitni Ijobiy
pedagogik stress kamayishiga	1.	keng qamrovli nazariy bilimlar;	muhit esa
	2.	refleksiv va tanqidiy tafakkur;	omillarining
	3.	pedagogik moslashuvchanlik;	xizmat qiladi.
	4.	kommunikativ kompetensiya.	stress pedagog jarayonida
Kasbiy faoliyati			

yuzaga keladigan psixologik zo‘riqish holati bo‘lib, u emotsional charchoq, motivatsiya pasayishi va kasbiy samaradorlikning kamayishi bilan namoyon bo‘ladi. Stress omillari asosan tashkiliy muammolar, kommunikativ qiyinchiliklar, yuqori mas’uliyat va vaqt taqchilligi bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressning surunkali davom etishi pedagogning kasbiy yonib ketishiga va ta’lim sifati pasayishiga olib keladi.

Nazariy tahlil natijalari pedagogik eruditsiya darajasi yuqori bo‘lgan pedagoglarda kasbiy stressni boshqarish ko‘nikmalari rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bunday pedagoglar murakkab vaziyatlarga moslashuvchan yondashadi, refleksiya orqali o‘z faoliyatini tahlil qiladi va psixologik barqarorlikni saqlay oladi. Shuningdek, pedagogik eruditsiya ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam berib, pedagogning kasbiy qoniqishini oshiradi.

Olingan natijalar pedagogik eruditsiya pedagogning kasbiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. U pedagog faoliyatining sifatini oshirish bilan birga, ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan pedagogik eruditsiyani rivojlantirish ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarish strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur. Shuningdek, pedagogik eruditsiya pedagogning coping strategiyalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Ya’ni pedagog murakkab vaziyatlarda muammoni konstruktiv tarzda hal etish, hissiy holatini boshqarish hamda kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarga moslashish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik eruditsiya pedagogning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan psixologik zo‘riqishlarni kamaytirish, pedagogik vaziyatlarni samarali boshqarish hamda sog‘lom psixologik muhitni yaratish orqali pedagoglarda kasbiy stress profilaktikasining muhim pedagogik-psixologik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Markova A.K. Psixologiya professionalnogo razvitiya uchitelya. – Moskva: Prosveshchenie, 2018. – 312 s
2. Sharipova D.K. Pedagog shaxsining stressga barqarorligini rivojlantirish omillari // Pedagogik mahorat. – 2022. – №2. – B. 62–66.
3. Слостенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика. — М.: Академия, 2013. — С. 94–102, 118–124, 138–142.
4. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. — М.: Logos, 2004-y.
5. Ushinskiy K.D. Inson — tarbiya predmeti sifatida. — М.: Педагогика, 1988-y.
6. Makarenko A.S. Pedagogik poema. — М.: Xudojestvennaya literatura, 1983-y.
7. Suxomlinskiy V.A. Bolalarga yuragimni beraman. — М.: Педагогика, 1977-y.